Oliy ta'limda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishda maxsus pedagogikaning o'rni	811
Alijonova Dilorom Azamjonovna	
Sportning kurash turi tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	815
Do'stov Dilmurod Karimovich	



O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	818
<i>Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich</i>	
The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress	821
<i>Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Normuratov Laziz Azizovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzi buzilishining turlarini va darajasini aniqlash usullari	826
<i>Otaboyeva Nodira Qodir qizi</i>	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati	830
<i>Qobilova Aziza Tursunovna</i>	
Intellectual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari	833
<i>Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich</i>	
Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish	837
<i>Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I.</i>	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	840
<i>Суяров Хуршид Бахриддинович</i>	
Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari	844
<i>Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi</i>	
Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari	852
<i>Turapova Ra'no Barat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish	857
<i>Jurayeva Muhayyo Nematillayevna</i>	
Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	861
<i>Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish	865
<i>Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich</i>	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	868
<i>Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna</i>	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives)	873
<i>Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli</i>	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish	877
<i>Yuldasheva Gulsanam Arken qizi</i>	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
<i>Бахриева Шахноза Давроновна</i>	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
<i>Равшанова Иноят Эркиновна</i>	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
<i>Тагаева Тамара Баходировна</i>	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
<i>D. S. Zokirova</i>	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
<i>Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich</i>	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
<i>Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi</i>	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmuhamedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi</i>	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
<i>Rustemov Muxamed Biysenbayevich</i>	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
<i>Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna</i>	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
<i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinova</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English	1019
Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari	1028
Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari	1031
Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
Iminova Z. B.	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati	1038
Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish	1044
Kalmuratovna Venera Sultanova	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
Kamola Abdullayeva	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
Karimov Orif Obloqul o'g'li	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
Makulov Shuxratjon Zokirovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
Mansurova Umida Mansur qizi	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
Murodov Nozimjon Olimjonovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
Nafasova Jamila Turg'un qizi	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati ..	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчебра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	



MILLATLARARO OILALARDA VOYAGA YETAYOTGAN BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVI VA ETNIK IDENTIFIKATSIYA JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Roziqova Malika Olimovna

Namangan davlat pedagogika instituti

“Kreativ pedagogika va psixologiya” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Globallashuv, migratsiya va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi natijasida millatlararo nikohlar sonining ortishi zamonaviy jamiyat uchun dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biriga aylandi. Bunday oilalarda voyaga yetayotgan bolalar ikki yoki undan ortiq madaniy muhit ta'sirida shakllanadi, bu esa ularning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayoniga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Maqolada aralash oilalarda o'sayotgan bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar – madaniyatlararo kommunikatsiya, ota-onalarning milliy qadriyatlari, til muhiti, ijtimoiy muhit va stereotiplarning roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: millatlararo oila, ijtimoiylashuv, etnik identifikatsiya, madaniyatlararo muhit, tolerantlik, madaniy moslashuv, bola shaxsi.

Abstract: As a result of globalization, migration, and the intensification of intercultural relations, the number of interethnic marriages has increased, making this phenomenon one of the pressing socio-psychological issues of modern society. Children growing up in such families are influenced by two or more cultural environments, which uniquely affect their socialization and ethnic identification processes. The article analyzes the main psychological factors influencing the personal development of children raised in mixed families – intercultural communication, parents' national values, language environment, social surroundings, and the role of stereotypes.

Key words: interethnic family, socialization, ethnic identification, intercultural environment, tolerance, cultural adaptation, child's personality.

Аннотация: В результате глобализации, миграции и усиления межкультурных связей количество межнациональных браков значительно возросло, что делает данное явление актуальной социально-психологической проблемой современного общества. Дети, растущие в таких семьях, формируются под влиянием двух или более культурных сред, что оказывает особое влияние на их социализацию и процесс этнической идентификации. В статье анализируются основные психологические факторы, влияющие на личностное развитие детей, воспитывающихся в смешанных семьях, – межкультурная коммуникация, национальные ценности родителей, языковая среда, социальное окружение и роль стереотипов.

Ключевые слова: межнациональная семья, социализация, этническая идентификация, межкультурная среда, толерантность, культурная адаптация, личность ребёнка.

KIRISH

Hozirgi kunda jahonda madaniyatlararo aloqalar va millatlararo munosabatlar ijtimoiy amaliyotda keng tarqalgan bo'lib, buning natijasida etnik aralash nikohlar soni ortib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi, migratsiya oqimining kuchayishi hamda, ayniqsa, yoshlar ta'limi uchun dunyo eshiklarining ochiqligi nafaqat jahonda, balki mamlakatimizda ham millatlararo nikohlarning ortib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya va sotsiologiya sohalarida millatlararo oilalar ijtimoiy fanlarga qiziqishning ortib borayotgan ob'ektiga aylangan, chunki ularni o'rganish zamonaviy dunyoda katta ahamiyatga ega bo'lgan ikki jihatga taalluqlidir. Eng muhimi, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ko'plab mamlakatlarda oilani o'rganishning dolzarbligi tobora ortib bormoqda; bu esa jamiyat hayotida muhim o'rin egallashi, uning barqarorligini ta'minlashi va madaniy siyosat muammolarini hal etishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Aralash nikohlarni o'rganish esa har bir alohida mamlakatda ham, jahon miqyosida ham ularning migratsiyadagi o'rni va roli, ijti-



moiy-iqtisodiy, demografik va ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi ahamiyati va ta'sirini tushunishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi ^[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Djaber Xasan M.A bunday oilalardagi munosabatlar ko'p jihatdan muloqot an'analarga, jamiyatning mavjud iqtisodiy va ijtimoiy holatiga, jamiyatga bog'liq bo'lgan oilaviy aloqalarning mavjudligiga, oila a'zolarining uy xo'jaligidagi ishtirokiga, jamoat munosabatlariga, oilaning turiga – katta, farzandsiz, kim etakchi ekaniga, shaxsiy fazilatlariga, oila a'zolarining xarakteriga bog'liq deb fikr bildiradi ^[3]. Ko'plab tadqiqotchilar va psixologlar etnik aralash oilada tug'ilgan farzandlarning ko'p hollarda bir millatli oilada tug'ilgan bolalarga nisbatan sog'lom va zehnlil bo'lishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular kuchli genofondni meros qilib olishadi. Elena Eremina 30 yildan ortiq vaqt davomida genetik tadqiqotlar sohasida ish olib borgan bo'lib, uning millatlararo nikohdan tug'iladigan bolalar haqida quyidagi fikrlari mavjud: turli etnik guruhlar tashkil etgan juftliklar avlodlar davomida to'plangan o'ziga xos genetik xususiyatlarga ega bo'ladi, ularning ayrim xususiyatlari bir-biriga to'liq mos kelmaydi. Bunday ittifoqlardan tug'ilgan bolalarda ko'pincha ota-onalaridan farq qiluvchi va ba'zan yanada ifodali xususiyatlar, masalan, kuchli immunitet kuzatiladi.

Bilamizki, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh o'g'il-qizlarda turli patologiyalar paydo bo'lishiga olib keladi, aksincha, juda farqli odamlardan – kamida tug'ilgan joyi bo'yicha – tashkil etilgan ittifoq bunday jarayonning oldini olishi mumkin, – deydi tibbiyot fanlari bo'yicha nomzod ^[2]. Farzand ikki millatning madaniyati bilan tanishadi, bu esa uning dunyoqarashini kengaytiradi. Biroq bu jarayonda ota-onalar farzandda qaysi madaniyat ustuvor bo'lishi kerakligini aniqlab olishlari muhim. Bunday oilalarda farzand kamida ikki tilda gaplashishni o'rganadi, bu esa uning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo ba'zan bolalarda ikkitalilik holati natijasida nutq chiqishi kechikishi yoki bir tildan ikkinchisiga o'tishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Millatlararo oilalarda tarbiya turi va munosabatlar darajasiga ko'ra demokratik yoki avtoritar bo'lishi mumkin.

Demokratik turdagi oilalarda oila ichidagi munosabatlar urf-odat va an'analarni, shuningdek, ikkala ota-onalarning oilaviy hayot normalarini tanlab olishga asoslanadi. Bu yerda oila ichidagi muloqot ikki tilda olib boriladi va bola, qoida tariqasida, ularni juda oson o'zlashtiradi. Bu turdagi oilaviy huquqiy munosabatlar asosan shaharlarda uchraydi. Shu bilan birga, millatlararo oilalarning oilaviy turmush tarzining mavjud xususiyatlari yashash joyidan tashqari boshqa omillarga ham bog'liq bo'ladi, masalan, turmush o'rtoqlarning ta'lim darajasi, ularning tanlagan kasbiy yo'nalishi va boshqalar. Kattalar o'zlari uchun tushunishlari kerak bo'lgan eng muhim narsa – bolalarni suhbatda ikki tildan foydalanishga o'rgatish, ya'ni farzandga ikki tilda so'zlash imkoniyatini berishdir, lekin bu oson ish emas. Tilning o'zi oddiy tovushlar yig'indisi emasligi sababli, nafaqat ota-onaning tilini o'rgatish, balki farzandga o'z vatani haqida ma'lumot berish ham zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oila ijtimoiy institut sifatida shaxsning asosiy qadriyatlarini, me'yorlarini va xulq-atvor stereotiplarini shakllantiradi, shu bois millatlararo oilada bu jarayon ko'p madaniyatli kontekstdagi o'zaro ta'sir orqali kechadi. Ota-onalarning bir-biriga va bolaga bo'lgan munosabati, ularning madaniy tolerantlik darajasi bolaning shaxsiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ikki millatli oilalarni o'rganishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlardan biri ushbu oilada tug'ilgan farzandlar va ularning tarbiya jarayonidir, chunki millatlararo nikohda turmush o'rtoqlarning ma'lum bir etnik madaniyatga mansubligi bunday oilalarda bolani tarbiyalash xususiyatlariga bevosita ta'sir qiladi. Ular qaysi millat vakillari hisoblanishi, qanday madaniyat shakllanishi, qaysi tilda so'zlashishi kabi savollarga javob topish har doim ham oson emas.

Millatlararo nikohning bolaning tarbiyasiga ta'siri, uning kelajakdagi jamiyatdagi o'rni va bola duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar zamonaviy jamiyatda dolzarb masalalardan biridir. Eng muhim mavjud muammolardan biri – bolalarning milliy o'zini o'zi identifikatsiya qilishidir. Millatlararo nikohda bolalar uchun har ikkala ota-onaning madaniyati va an'analari uyg'un va teng ravishda qabul qilinishi nihoyatda murakkab jarayondir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Etnik identifikatsiya – shaxsning o'zini ma'lum bir etnik guruhga mansub deb his etishi jarayonidir. E. Erikson nazariyasiga ko'ra, o'zini anglash (identifikatsiya) jarayoni ayniqsa o'smirlik davrida kuchayadi. Millatlararo oilalarda esa bu jarayon murakkabroq kechadi, chunki bola bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq etnik guruh bilan identifikatsiyalashga urinadi. T. Stefanenko fikriga ko'ra, bunday vaziyatlarda shaxsda "ikki madaniyatli identifikatsiya" yoki "aralash identifikatsiya" shakllanadi. Bu jarayon ijobiy yo'nalishda kechsa, bola o'zini har ikki madaniyatning to'laqonli vakili sifatida qabul qiladi; salbiy yo'nalishda kechsa, u "hech bir madaniyatga to'liq mansub emasman" degan hissiy tanglikni boshdan kechirishi mumkin. Qo'shma Shtatlarda irqiy va etnik o'zaro nikohlar soni sezilarli darajada oshgan. Irqlararo nikohlar ulushi 1970-yildagi 1% dan 2000-yilda 5% gacha ko'tarilgan, shu davrda irqlararo juftliklar soni 3 milliondan oshgan ^[2]. Amerika Qo'shma Shtatlarida turli irq vakillari o'rtasida qurilayotgan nikohlar sonining kundan kunga oshib borayotgani ushbu sohada ko'plab

tadqiqotlar olib borilishini talab qilmoqda. Amerikalik tadqiqotchilar aralash irqli oilalarda bolalarni tarbiyalashni qo'llab-quvvatlash zaruriyatini ta'kidlab, buning bir qator sabablarini ko'rsatganlar. Birinchidan, globallashuv ta'sirida odamlar dunyoning bir qismidan boshqasiga ko'chib o'tishda davom etadilar, bu esa aralash irqli bolalarning butun dunyoda ko'proq uchrashiga olib keladi.

Natijada ularning ozchilik maqomi bilan bog'liq muammolar asta-sekin kamayadi. Ikkinchidan, aralash irqli bolalar madaniy jihatdan rang-barang muhitda tarbiyalanadi va bu ularni global fuqarolik kompetensiyalariga ega shaxslarga aylantiradi. Ular turli madaniyatlararo munosabatlar ko'nikmalarini egallaydilar, bu esa ularga dunyoning istalgan nuqtasida jamoaga moslashish va faol ishtirokchi bo'lish imkonini beradi. Bu qobiliyatning shakllanishi ko'p jihatdan ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kuzatish jarayoni bilan bog'liq. Uchinchidan, millatlararo bolalar turli xil genofondga ega bo'lganliklari uchun genetik kasalliklar va nasldan-naslga o'tadigan nuqsonlarni yuqtirish ehtimoli past bo'ladi. Bu ularning sog'lig'ini yaxshilashga xizmat qiladi; yaxshi salomatlik esa hayot sifatining muhim ko'rsatkichidir ^[4]. Shunday qilib, irqqlararo bolalar sog'liq bo'yicha ko'pchilikka nisbatan afzalliklarga ega bo'lishlari mumkin.

Kamsitishlarni engishga muvaffaq bo'lgan, to'rtinchi toifa – madaniyatlararo bolalar – kuchli ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ular boshqa odamlar bilan ishonchli va barqaror munosabatlar o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lib, hayotda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari kengayadi. Ushbu omillardan kelib chiqib, aralash irqli oilada bolalarni tarbiyalashning foydali jihatlari mavjudligi, mavjud qiyinchiliklarga qaramay, ularning ustunligi ko'zga tashlanadi. Millatlararo oilalarda ijobiy ijtimoiylashuv va sog'lom etnik identifikatsiyani ta'minlash uchun ota-onalar farzand tarbiyasida ikki madaniyatni teng qadrlash prinsipiga amal qilishlari, bolaga har ikkala madaniyatning ijobiy jihatlari o'rgatish, mavjud farqlarni raqobat emas, balki boylik sifatida ko'rsatishlari zarur. Maktab psixologi va pedagoglar millatlararo muhitdagi bolalarga ijtimoiy moslashuv jarayonida yordam berishlari kerak. Jamiyatda tolerantlik, bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqotni targ'ib etish ham muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, millatlararo oilalarda o'sayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayoni murakkab, ammo boy madaniy tajribaga ega bo'lgan psixologik hodisadir. Bunday bolalarda ikki madaniyat ta'sirida shakllangan shaxsiy va ijtimoiy fazilatlar – empatiya, moslashuvchanlik, bag'rikenglik, madaniyatlararo kompetentlik kabi ijobiy jihatlari rivojlanadi. Shu bilan birga, agar bola o'z madaniy ildizlarini anglash imkoniyatidan mahrum bo'lsa, identifikatsiya inqirozi, o'zini begonalashish yoki ichki ziddiyat kabi muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun millatlararo oilalarda tarbiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish, psixologik yordamni kuchaytirish zamonaviy jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantirishda bolaning ikkala ota-onasining an'alarini idrok etish jarayonida har bir kishi ishtirok etishi zarur: bolalar tarbiyasining boshidanoq ushbu ta'lim masalasini boshqarish mas'uliyatini ota-onalar, yaqin qarindoshlar va ta'lim muassasasi pedagoglari o'z zimmasiga olishi lozim.

To'g'ri psixologik yondashuv orqali bunday oilalarda tarbiyalangan bolalar har ikkala madaniyatning ijobiy jihatlari o'zlashtirib, jamiyatga foydali shaxslar bo'lib yetishishi mumkin. Dunyodagi har qanday davlat va xalqning kelajagini tahlil qilganda millatlararo nikohlar sonining ortishi tabiiy va tartibga solinmagan taraqqiyotdir. Juda ko'p davlatlarda, shu jumladan mamlakatimizda ham ikki millatli oilalarning statistik tahlili yetarli darajada olib borilmaydi. Biroq bu kabi oilalar oz yoki ko'p bo'lsa-da, jamiyatimizda mavjud hamda oila institutining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Shuning uchun millatlararo nikohlarni har jabhadan o'rganish o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пешкова, В. М. (2024). Смешанные браки: факторы, характеристики и влияние на семью и общество (обзор зарубежных исследований). Социологический журнал, (3), 124–144.
2. Pearce-Morris J., King V. The Well-Being of Children Living with Interethnic Parents: Are They at a Disadvantage? J. Fam. Issues, 33(7), 898–919. 2012.
3. Джабер, Хасан М. А. Проблемы и особенности воспитания детей в межнациональных семьях. Молодой ученый, №3(107), 994–997. URL: <https://moluch.ru/archive/107/25576/>
4. Perkins, Barbara Bridgman. Tibbiy yetkazib berish biznesi, sog'liqni saqlash islohoti, tug'ilish va iqtisodiy tartib. Rutgers University Press, 2006.
5. Utebergenov, M. A., Roziqova, M. O. Q. (2025). Oilada yuzaga keladigan nizolarning bola ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga ta'siri hamda nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and Education, 6(2), 320–325.
6. Roziqova, M. (2023). Baynalminal oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Interpretation and researches, 1(1).
7. Qayumov, B. Z. (2025). O'smirlarda kreativlik namoyon bo'lishining hududiy tafovutlari. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(6).
8. Қайумов, Б. З. Ў., Абдурахмонов, О. А. Ў. (2021). Талабаларда шахсий ва интеллектуал фазилатларни шакллантириш механизмлари. Scientific progress, 1(6), 750–754.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.